



TOSHKENT

FARMATSEVTIKA INSTITUTI

TALABALAR ILMIY JAMIYATINING AN'ANAVIY 80-ILMIY ANJUMANI

**“INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM” YILIGA BAG'ISHLANGAN
“FARMATSEVTIKADA IQTIDORLI YOSHLARNING ILMIY
SALOHIYATI” MAVZUSIDAGI TALABALAR UCHUN
“80-TALABALAR ILMIY JAMIYATI”
ILMIY ANJUMANI TO'PLAMI**



TOSHKENT-2023



Ulug' allomalarimiz, o'zlarining olamshumul kashfiyot va ixtirolarini sizning yoshingizda – ayni kuchga to'lgan navqiron chog'larida amalga oshirganlar. Siz ham, buyuk ajdodlardan ibrat olib, hayotda mo'jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak. Biz bunday iqtidorli yoshlarga o'z vaqtida har tomonlama e'tibor qaratib, qo'llab-quvvatlasak, o'ylaymanki, ular katta-katta zafarlarni qo'lga kiritadilar.

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh.M.Mirziyoyev***

ALTHAEA OFFICINALIS L. O'SIMLIK POROSHOGI GOMEOPATIK BALG'AM KO'CHIRUVCHI GRANULA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH.

Nazarova. Z.A, Omonova.M.T

Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi.

e-mail: nazarova.zarifa@list.ru

tel: +998971309047

Dolzarbli: Gomeopatiya tibbiyotning noan'anaviy davolash tizimining biri bo'lib , gomeopatiyaning asosiy qoidalari : kassallikni "o'xshash " dorilar va mikro yoki ultradozalar bilan davolashga qaratilgan . Gomeopatiya, yunoncha "homoios- o'xshash " va " pathos – kassalik" so'zlaridan olingan. Gomeopatiya dorilarni sog'lom odamda kata dozalarda sinalganda , ushbu dori vositasi qaysi kassalik belgilarini paydo qilsa , ushbu kassalikni aynan shu dori vositasi bilan davolashga asoslangan . Gomeopatiyaning asosiy vazifasi Ganman bo'yicha yumshoq barqaror sog'likni tiklashga qaratilgan . Bunga esa gomeopatik dorilar bilan yetishiladi . Gomeopatik dorini tanlash juda muhim sanaladi , chunki kassalik bilan og'rigan bemorga yakka holda yondashib , uning konstitutsiyasi hisobga olinib tanlanadi . Demak , gomeopatiyaning asosiy maqsadi a'zolar o'z-o'zini boshqarishini tiklash , ya'ni me'yorlash ichki gomeostazni ta'minlash .

Tadqiqotning maqsadi: Balg'am ko'chiruvchi gomeopatik granular ishlab chiqarishni tashkillashtirishdan iborat . Tadqiqot obyekti sifatida dorivor gulxayri o'simlik ildizining paroshogi olinadi .

Usul va uslublar: Adabiyot manbalaridan ma'lumki , balg'am ko'chiruvchi dori vositalar sifatida asosan dorivor o'simliklar qo'llaniladi . Misol uchun: dorivor gulxayri (*Althaea officinalis* L.) , dorivor mavrak (*Salvia officinalis* L.) , tog' rayhon (*Origanum Vulgare* L.) , tog' jambil (*Thymus Vulgaris* L.) , qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra* L.) , oq qaldirmoq (*Tussnago farfara* L.) , katta zubtrum (*Plantago major* L.) , qora andiz (*Jnula helenium* L.) , hushbo'y binafsha (*Viola odorfia* L.) va boshqalar. Gulxayri ildizida 35% gacha shilimshiq moddalar, 37% kraxmal , L-aspargin 2% , betan 4% , saxaroza 10.2% va boshqa moddalar borligi aniqlangan . Tarkibidagi shilimshiq modda va kraxmal hisobiga balg'am ko'chiruvchi hususiyatga ega.

Natijalar: Gomeopatiya farmakopeyasining xususiyatlaridan biri dorilarni o'ziga xos texnologiya bilan tayyorlashdir . Dorivor moddalarni kukun xolida tayyorlashda maydalash uchun 1 soat vaqt talab qilinadi . Natijada u o'z ichidagi zarrachalarni asta- sekin o'zidan bo'shatib buning xisobida uning yuza sathi ortadi va tashqi ta'siri ko'payib fizik-kimyoviy ta'sirlarining ham to'liq bo'lishiga olib keladi. Natijada gulxayri poroshogi gomeopatiya farmakopeyasining 7 bandi asosida 3 s suyultirishdagi triturasiya tayyorlanadi . Suyultiruvchi sifatida sut qandi 1 :100 nisbatda olinadi . Tayyorlash texnologiyasining bosqichlari : gulxayri poroshogini kerakli massada tortib olish, xavonchada ishqalab aralashtirish va xavoncha dastasidan ko'chirish . Avval 1 s ni , 2 sni so'ng esa 3 s ni tayyorlab olamiz bu uchun umimiy 3 soat vaqt sarf bo'ladi . Sifatini tekshirib sochiluvchanligi , bir xilligi , jixozlanadi . Tayyorlangan 3 s gulxayri triturasiyasidan gomeopatik granulasini tayyorlash texnologiyasi : tayyor qand donachalarga to'yintirish usulida olinadi 10 gr qand donachalariga 0,1gr 70% li etil spirtidan 3 tomchi gulxayri spirtli eritmasi 0,1 gr (3t) to'yintiriladi . Va 10 minut davomida qo'lda chayqatiladi , so'ng ochiq havoda quritiladi , sifatini baxolash uchun tashqi ko'rinishi bir-biriga yopishgan granular miqdori 1% dan oshmasligi , erishi esa 5 minut . Massa yo'qotilishi 1% dan 10% gacha bo'lishi mumkin .

Xulosa: Gulxayri poroshogi asosida ilk bor balg'am ko'chiruvchi gomeopatik granular texnologiyasi ishlab chiqildi. Gulxayri ildizining poroshogidan avval gomeopatik triturasiyasi 3 s suyultirishda tayyorlanadi . Tayyorlangan triturasiya suyultirlanadi (1qisim poroshok , 79 qisim suv va 20 qisim 90% li etil spirti) . So'ng donachalar to'yintirilib gomeopatik granulasi olinadi.